



Kamola AHMEDOVA,
UrDU, Ingliz tili va adabiyoti kafedrası, tayanch doktorant
E-mail: kamolaa946@gmail.com

Filologiya fanlari doktori, dotsent I.Temirova taqrizi asosida

THE PHENOMENON OF VIRTUAL SPEECH COMMUNICATION IN LINGUISTICS.

Annotation

This article presents comments on media communication or the virtual form of communication, which has entered the field as a new form of communication, takes a comprehensive look at the process of online communication, and emphasizes its specific features. In particular, using examples of various social networks, phonographic, graphic and lexical means that play a major role in its organization were demonstrated. The tools characteristic of the process of virtual communication are considered, expressing emotional experiences, psyche and at the same time the mood of communicators, and it is once again proven that it is precisely such audio and visual elements that are the main organizers of modern media communication.

Key words: media communication, Internet discourse, virtual communication, communication, correspondence on social networks, lexical.

TILSHUNOSLIKDA VIRTUAL NUTQIY MULOQOT HODISASI.

Annotatsiya

Ushbu maqolada muloqotning yangi ko'rinishi sifatida maydonga kirib kelgan mediamuloqot yoxud virtual muloqot shakli xususidagi mulohazalar keltirilib, onlayn muloqot jarayoniga har tomonlama yondashilib, uning o'ziga xos xususiyatlariga alohida to'xtalib o'tiladi. Xususan, uni tashkil qilishda asosiy rol o'ynovchi fonografik, grafik hamda leksik vositalar turli ijtimoiy tarmoq platformalaridagi misollar orqali dalillanib ko'rsatildi. Virtual muloqot jarayoniga xos bo'lgan, kommunikatorlarning hissiy kechinmalarini, ruhiyati va shu bilan birga kayfiyatini o'zida ifodalab keluvchi vositalar ko'rib chiqilib, bunday audio va vizual elementlar bugungi kun mediamuloqotining asosiy tashkil qiluvchilari ekanligi yana bir karra o'z isbotini topdi.

Kalit so'zlar: mediamuloqot, internet diskursi, virtual muloqot, muloqot, ijtimoiy tarmoq yozishmalari, leksik.

ФЕНОМЕН ВИРТУАЛЬНОГО РЕЧЕВОГО ОБЩЕНИЯ В ЛИНГВИСТИКЕ.

Аннотация

В данной статье представлены комментарии к медиакоммуникации или виртуальной форме общения, вышедшей на поле как новая форма общения, комплексно рассматривается процесс онлайн-коммуникации, подчеркиваются его специфические особенности. В частности, на примерах различных социальных сетей были продемонстрированы фонографические, графические и лексические средства, играющие главную роль в её организации. Рассмотрены характерные для процесса виртуальной коммуникации инструменты, выражающие эмоциональные переживания, психику и одновременно настроение коммуникаторов, и еще раз доказано, что именно такие аудио и визуальные элементы являются главными организаторами современной медиакоммуникации.

Ключевые слова: медиакоммуникация, интернет-дискурс, виртуальное общение, общение, переписка в социальных сетях, лексический.

Kirish. Muloqot tushunchasi tilshunoslik sohasida ancha yillardan beri tadqiq qilinib kelinayotgan lingvistik hodisa bo'lib, bugungi axborot texnologiyalari o'zining taraqqiyot cho'qqisiga chiqqan davrga kelib, o'zining bir qancha yangi, hali o'rganilmagan jabhalari borligini namoyon etdi. Xususan, zamonaviy texnologiyalarning jamiyatimizdagi deyarli barcha soha vakillari hayotiga kirib kelib, tubdan burilish yasagani bugungi kun kishisining har bir daqiqasi u bilan chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Kishilik jamiyatini muloqotsiz tasavvur qila olmaganimiz kabi, bugungi davrimizni ham muloqotning yangi ko'rinishi bo'lmish virtual muloqotsiz tasavvur qilish mushkul. Hozirda ko'pchilik jonli muloqotga taqqoslaganda virtual muloqot shaklini afzal ko'rayotganligi hech kimga sir emas. Bunga zamonaviy kompyuter texnologiyalarining insoniyatga taqdim etayotgan qulayliklarini asosiy sabab qilib ko'rsata olamiz. Ayniqsa, onlayn muloqot makon va zamonda deyarli chegara bilmasligi fikrimizning yaqqol dalili bo'la oladi deb hisoblaymiz. Tilshunoslikda muloqot tushunchasi shu davrga qadar keng qamrovli tadqiqot obyekti sifatida o'rganilgan bo'lsa, zamonaviy axborotlashgan jamiyatda yanada

chuqurroq, har tomonlama tahlil qilishni talab qilyapti desak adashmagan bo'lamiz. Chunki onlayn xabarlashuv jarayoni ham o'ziga xos bir qator lingvistik xususiyatlarni o'zida jamlagan.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Muloqot tushunchasi borasida dunyo tilshunosligida ham, o'zbek tilshunosligida ham olib borilgan tadqiqot ishlari bisyor. Xususan, N.B.Muratova muloqot jarayonidagi paralingvistik vositalar xususida, M.A.Maxsudova muloqotning psixologik xususiyatlari, K.N.Abbosova va M.M.O'rmonovalar esa muloqotdagi noverbal vositalarning kelib chiqishi, D. Lutfullayeva o'zbek muloqot matnining deyktik birliklari haqida ilmiy izlanishlar olib borishgan bo'lsa, jahon tilshunosligining yirik namoyondalaridan B.F.Parigin muloqotni tashkil etuvchi tarkibiy qismlarini, M.S.Kagan muloqotning paydo bo'lish muammosini, A.I.Novikov muloqotdan ko'zlangan maqsad hamda muloqot rejasini tuzish kabi mavzularda bir qator ilmiy ishlarini keng ommaga taqdim qilganlar. Muloqotning yangi ko'rinishi sifatida namoyon bo'lgan virtual muloqot shakli xususida ham bir qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan va bugungi kunda ham koplal

tilshunoslar tomonidan juda katta qiziqish bilan o'rganilmoqda desak mubolag'a qilmagan bo'lar edik. Xususan, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori M.M.Sotvoldiyevnaning "Matn pragmatik tavsifida sintaktik birliklarning o'rni" nomli nomzodlik dissertatsiyasining uchinchi bobi "Internet muloqotining sintaksopragmatikasi" deb nomlanib, "Internet diskursi tilining sintaktik o'ziga xosligi", "Internet muloqoti sintaksisida paralingvistik va media vositalarning o'rni" kabi bo'limlarni o'z ichiga olgan. Jahon tilshunosligining mashhur namoyondalaridan L.N.Stepanova zamonaviy axborot kommunikatsiyalar muhitidagi onlayn sharhlarni lingvistik jihatdan tadqiq qilgan bo'lsa, A.V.Ugro internet muloqotiga xos nutq janrlarini tasniflab o'tgan. Shuningdek, A.A.Malishhev, T.G.Dobrosklonskaya, L.R.Duskayeva, O.I.Tayupova, N.V.Bichkovskaya kabi bir qator rus tilshunosligi vakillari ham medialingvistika, uning o'ziga xos jihatlari, nutq jarayoniga ta'siri xususida salmoqli ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Lisonning har qanday vazifasi uning kommunikativ jarayonda faollashuvida namoyon bo'ladi[1]. Shunday ekan, lisoniy faoliyatning kommunikativ xususiyatlari, ushbu xususiyatlarni yuzaga keltiruvchi turli omillarni o'rganib chiqish tilning ijtimoiy mohiyatini ochib berish uchun muhim sanaladi. Biror bir tilda so'zlash oddiygina ushbu tildagi gaplarni tuzishdan iborat bo'lib qolmasdan, balki shu yo'sinda ma'lum turdagi ijtimoiy faoliyat ijrosidir[2]. M.S.Kagan yozganidek, subyekt-obyekt munosabatlarining o'zaro ta'siri jarayonida biz faoliyatning kommunikativ turi yoki muloqotga duch kelamiz. O'zining 1988-yilda nashr etilgan "Muloqot dunyosi: intersub'yektiv munosabatlar muammosi" kitobida u madaniyat va falsafa tarixida muloqot muammosi qanday paydo bo'lganligi, uning strukturalari va funksiyasini tahlil qilar ekan, dastlab faqat muloqot tushunchasi anglashilganligi, zamonaviy qarashlar talqinida "kommunikatsiya" tushunchasi ham kirib kelganligi va endi ular bir-birini taqozo etuvchi alohida kategoriyalar sifatida ajratila boshlaganligini asoslab beradi va muloqot, birinchi navbatda, ikki sub'yektning o'zaro ta'siri, kommunikatsiya esa bu – sof axborot jarayoni, sub'yektning u yoki bu obyektga axborot yetkazish jarayonidir deb ta'kidlab o'tadi[3]. Ko'rinish turibdiki, muloqot murakkab antroposentrik jarayon bo'lib, unda inson omili yetakchilik qiladi, biroq, inson vaziyat va sharoitni, makon va zamoni, tinglovchining xususiyatlari va holatini ham inobatga olmasdan, bu omillar bilan hisoblashmasdan o'z kommunikativ maqsadini amalga oshirishi qiyin[4].

So'zsiz, muloqot jarayonining asosiy maqsadi axborot uzatish va qabul qilish ekan, shu sababli ham kommunikatsiya hodisasiga turli mualliflar tomonidan berilayotgan barcha ta'riflar asosida ijtimoiy kommunikatsiyani insonlarning belgilar vositasida bajaradigan o'zaro "axborot-ma'no hamkorligi" sifatidagi talqini yotadi[1]. Muloqot qilishga shaylangan shaxs avvalambor biror bir maqsadni ko'zlar ekan, unga erishish uchun muloqot rejasini tuzib oladi. Bu borada matn semantikasi bilan shug'ullangan mashhur psixolog A.I.Novikov ta'kidlab o'tganidek, so'zlovchida dastlab o'zi axborot berish istagida bo'lgan ma'lum predmet haqida tushuncha, fikr bo'lishi kerak[5]. Bu esa o'z navbatida, matnning nazariy jihatdan konseptual tuzilmasi vazifasini o'taydi desak xato bo'lmaydi.

Muloqotdan kutilgan maqsad oddiygina axborot almashish bilan chegaralanib qolmasdan, axborot uzatishdan "hamkor"ga ta'sir o'tkazish, uni biror narsaga ishonitirish, bo'ysundirish, harakatga undash maqsadi ham kutilishi ehtimoldan holi emas. Bundan tashqari, semiotiklarning o'zlari e'tirof etganliklaridek, aloqa vositasi bo'lmish belgilar so'zlovchi tomonidan o'z maylini, birovni yoki biror narsani yoqtirishini, noroziligini, hayratini va boshqa ruhiy tuyg'ularini izhor etish uchun ham qo'llanishini ham bilamiz.

Lisoniy muloqotning huddi shu jihatlari e'tiborga olingandagina semiotik tizimning qismlari o'zaro dinamik, harakatchan munosabatda bo'lishini tasavvur qilish mumkin bo'ladi[1].

Davr taraqqiyoti bilan kishilar orasidagi aloqa-munosabat shakllari ham tubdan o'zgarishlar, yangiliklar bilan boyib bormoqda. Xususan, bugungi axborot texnologiyalari hukmronlik qilayotgan davrda o'zaro muloqot jarayoni ham yangicha ko'rinish kasb etmoqda. Mediamuloqot ijtimoiy munosabatlarning yangicha ko'rinishi bo'lib, bugungi kunda milliardlab insonlarni o'ziga qamrab oldi.

Verbal diskursda nutqimiz mimika, imo-ishora va ohang kabi nolingvistik vositalar bilan boyitiladi. Internet muloqotida ana shu vositalarning o'rni qoplash uchun tinch belgilari, grafik belgilar, tasviriy elementlardan foydalanish imkoniyati mavjudki, bu muloqot jarayonini osonlashtiradi va ta'sir kuchini oshiradi. Adresant xabarni iloji boricha qisqartirib, nutqiy harakatni tejashga intiladi; boshqa tomondan esa qabul qiluvchi kengroq va yetarli ma'lumot olishni istaydi. Axborot oqimining keskin ko'payishi, axborot uzatishda samaradorlikka erishish maqsadi, vaqtdan va til birliklaridan unumli foydalanishga intilish qisqartmalardan keng foydalanishni taqozo etmoqda[6]. Shu boisdan, bugungi kun tarmoq foydalanuvchisi nutqini kuzatar ekanmiz, bir qancha o'ziga xos fonografik, grafik, leksik, grammatik vositalarga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Qahramonlar ruhiyatidagi ichki hayajon, xursand bo'lish, rozilik, taajjub, yalinish, hayratlanish, kinoya, piching, kesatiq, olqish, so'roq, ta'kid, qoniqmaslik, norozilik, tilak-istak, qo'llab-quvvatlash kabi holatlarni aynan berishda yozuvchilar unli yoki undoshlarni birdan ortiq yozish usuli – fonografik vositalardan foydalanadilar[7]. Bugungi kunda ushbu usul virtual nutqiy muloqot jarayonida ham kuzatilishi mumkin:

Sooooo beautiful and fearless...

I lovvveeee it! ("Feysbuk"dan)

Muhtaram president degan rekorddan ikki marta ko'proq Samarqand debdi

Albatta haaaziil ("Telegram"dan)

Bildirilayotgan fikrning turlicha tagma'nolar bilan ifoda etilishi jumlaning leksik vosita orqali boyitilganligini bildiradi:

Shanbaga qo'ygan barcha yumushlarimga ulgurdim endi bemalol dam olsam ham bo'ladi oyoqni osmondan qilib

"Alomatxon"dan nima kamingiz bor sizni o'rtoq ("Telegram"dan)

Ushbu jumla suhbatdoshlar uchun to'g'ri anglashilib yetishi uchun ular ushbu jumla qaysi filmdan namuna qilib olinayotganligi va ushbu film syujetidan xabardor bo'lmoqlari dardor. Aks holda, muloqot jarayonida tushunmovchilik yuzaga kelishi mumkin.

Bulardan tashqari, smaylik, gif, emoji, videotasvir hamda ovoqli yozuvlar ham bugungi kun tarmoq foydalanuvchilari orasida keng qo'llanilmoqda. Bu kabi audiovizual materiallar masofaviy muloqot ishtirokchilariga o'z hissiy kechinmalarini to'laqonli yetkazib berishda va suhbatdoshlar o'rtasidagi "chegara"ni qisqartirishda faol foydalaniladi:

Meni tabriklanglar men bugun talaba bo'ldim ☺

Tabriklayman juda yaxshi bo'libdi afsuski men bu yil ham o'qishga kirolmadim ☹ kelasi yil menga ham sizga o'xshab talabalik baxti nasib bo'lgay ("Telegram"dan)

Turli grafik simvollar ham axborot almashuvchilarning ruhiy holati, kayfiyati hamda his-tuyg'ularini ifodalash uchun xizmat qilishi mumkin:

To'g'risi bu post menga umuman yoqmadi bachkanamiyey

>:-O ("Feysbuk"dan)

Guys, leave your favorite US Presidents in the comments

Donald Trump

+ ("Feysbuk"dan)

Ushbu grafik simbol o'zida yuqorida keltirilgan fikrga nisbatan hamfikrlik munosabatini ifodalab berish uchun qo'llanilgan. Bu usul birinchidan, lingvistik iqtisod maqsadida ishlatilgan bo'lsa, ikkinchidan, vaqtni tejash imkonini ham beradi.

Virtual diskursda tinish belgilarini to'g'ri qo'llash qoidalariga deyarli amal qilinmaydi. Bundan asosiy ko'zlangan maqsad jo'natilayotgan xabarda qo'llanilishi nazarda tutilayotgan belgilar sonini tejab qolishdir:

Assalomu alaykum bitta savol bor edida bir semestr o'qib perevod qilsa bo'ladimi

Hech qanaqa sababsiz qilsa ham bo'ladimi ("Telegram"dan)

Farzandlarni niyati ham farzandlarni kamoli shunda bu zanjir bob ketadi, va hech kim kamolotga erishmide hamma bolasidan umid qiladi kelajakda osha bolalar ham ("Feysbuk"dan)

Ijtimoiy tarmoq yozishmalarida noadabiy leksik qatlamga xos birliklardan ham unumli foydalaniladi. Shu o'rinda alohida ta'kidlab o'tishimiz joizki, o'zbek tili leksikasida o'z va o'zlashgan qatlam, shuningdek, o'z qatlam tarkibida forscha, arabcha, ruscha-baynalminal so'zlar bor

Sleng	Ma'nosi
Macho	o'ta zamonaviy kiyingan yigit
Tormoz	sekin harakatlanuvchi, sekin qabul qiluvchi kishi
Tanka	yuqori mansabdagi tanish-bilish
Klass	zo'r, ajoyib

Ijtimoiy tarmoqlardagi yozishmalar dialektal leksikaga to'la ekanligi barchaga ma'lum. Muayyan bir hudud aholisi kundalik turmush tarzida o'zi istiqomat qilayotgan hududga xos bo'lgan til birliklaridan foydalanadi. Virtual muloqot

Dialektizm	Ma'nosi
nichiksan	Qalaysan
na gapla	nima gaplar
Bomisan	Bormisan

Leksik birliklardan neologizmlar ham ijtimoiy tarmoq xabarlashuvlarida ko'p qo'llaniladi. Bunday so'zlar kundalik turmushda yangidan paydo bo'lgan narsa, tushunchalarni ifodalaydi va ular yangilik bo'yog'iga ega bo'lganligi uchun ham bir ma'noda ishlatiladi[10]. Zamonaviy tilda endigina ommalashib, virtual makonda keng qo'llanilayotgan neologizmlarga misollar sifatida ingliz tilidan o'zlashgan *selfi, layfhak, vayn, vayner, post, heshteg, akkount, profil, lichka, kontent* kabi so'zlarni keltirib o'tsak bo'ladi:

Profilimdagi kanalga ulanib olinglar turk kiyimlari skidkasi ketyapti pushaymon bo'lmaysiz ("Telegram"dan)

Bu kanaldan qanday kontentlar topsa buladi? ("Feysbuk"dan)

Tahlil va natijalar. Muloqot tushunchasining tabiati, maqsadi, ifoda shakllari, yo'nalishiga ko'ra tasniflash me'zonlari tahlilga tortildi va muloqotning xarakterli jihatlari quyidagicha tasniflandi:

a.) Axborot uzatish usuliga ko'ra: verbal – noverbal; bevosita – bilvosita;

b.) Suhbatdoshlar ishtirokiga ko'ra: shaxslararo – ommaviy; monolog – dialog – polilog;

c.) Tabiatiga ko'ra: moddiy; faoliyat doirasida; konditsion; kognitiv; motivatsion;

d.) Yo'nalishiga ko'ra: rasmiy – norasmiy; gumanistik – manipulyativ; boshqaruvli – parallel (vertical – gorizontal);

e.) Makonga ko'ra: kontakt – distant;

f.) Zamonga ko'ra: sinxron (va asinxron) – diaxron

bo'lib, o'zbek tili leksikasi zamonaviyligi jihatdan 3 asosiy qatlamga bo'linadi[8]:

1.) zamonaviy qatlam – eskilik va yangilik bo'yog'iga ega bo'lmagan so'zlar. Shu qatlamga oid so'zlar o'zbek tili leksikasining asosini tashkil qiladi;

2.) eski qatlam – hozirda ham iste'molda bo'lgan istorizmlar, arxaizmlar bu qatlamga kiradi;

3.) yangi qatlam – yangi leksika deb xam yuritiladi, shuningdek, lug'aviy birliklar ishlatilish doirasi jihatdan 2 qatlamga ajratiladi: ishlatilish doirasi chegaralanmagan (umumiste'moldagi chegaralanmagan leksika) va ishlatilish doirasi chegaralangan so'zlar (dialektal, terminologiya, kasb-hunar leksikasi, ilmiy atamalar, jargon va argolar, vulgarizm va varvarizmlar).

Onlayn muloqot jarayonida eng ko'p uchraydigan leksik birliklar guruhini shubhasiz – slenglar tashkil qiladi. Sleng til talablariga javob bermaydigan, adabiy tildan farqli o'laroq, professional ravishda ajratilgan guruhlarining nutqi bo'lib, u o'smirlarning ko'cha tilidir. Sleng tushunchasi tobora zamonaviy filologiyaning e'tiborini qozonmoqda desak mubolag'a qilmagan bo'lar edik. U asosan oson muloqot uchun ishlatiladi va og'zaki nutqda ham, yozma nutqda ham bunday leksik birliklardan foydalanish holatlari birdek kuzatiladi[9]. Quyida ijtimoiy tarmoq sahifalarida faol qo'llanilayotgan bir qancha slenglarga misollar keltirib o'tishni joiz topdik:

jarayonining erkin, norasmiy kechishini inobatga oladigan bo'lsak, bu odatiy hol sanaladi. Quyida Xorazm vohasi istiqomat qiluvchilarining ijtimoiy tarmoqlarda faol qo'llovchi dialektizmlaridan bir qanchasini keltirib o'tmoqchimiz:

g.) Tarkibiga ko'ra: nutqiy muloqot; mediamuloqot.

Ijtimoiy tarmoqdagi yozishmalar yoki sharhlarning imloviy tomoni ham anchagina o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ayniqsa grafik vositalarning turli maqsadlarda qo'llanilish holatlari ko'p kuzatiladi. Turli grafik birliklar muloqot ishtirokchilarining suhbat mazmuniga nisbatan munosabatini, ularning his-tuyg'ularini va hattoki ba'zi grafik tasvirlar ularning yuz ifodasini ham ifodalaydi:

Tug'ilgan kuningiz bilan chin dildan oilamiz nomidan qutlaymiz!

Katta rahmat @("Telegram"dan)

Xulosa va takliflar. Medialingvistikaning yetakchi obykti bo'lgan onlayn matn – bu lingvistik va media xususiyatlarining dialektik birligi bo'lib, til birliklari, grafik tasvir, audio va videotasvir kabi semiotik belgilar uyg'unligida yaratiladigan muloqot materiali hisoblanadi va u mediadiskursda aktuallashadi. Mediamatn elementlari informativ-emotsional vosita sifatida uzatilayotgan axborot mazmunini to'ldirishga, ta'sir kuchini maksimal darajada oshirishga xizmat qiladi. Onlayn muloqot jarayonini har tomonlama o'rganib tahlil qilish yondashuvi orqali ijtimoiy tarmoqdan foydalanuvchilar nutqini yaqindan tadqiq qilish imkoni tug'iladi. Bu esa o'z navbatida virtual muloqot maydonidagi nutqiy jarayonlar bilan bog'liq muammolarni ochib berish borasida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar sonini oshirish hamda bu masalalarni yanada chuqurroq o'rganish zaruriyati borligini aks ettiradi.

ADABIYOTLAR

1. Sh.Safarov. Pragmalingvistika. Monografiya. – Toshkent, 2008. –B. 39
2. Kanngiesser S. Sprachkldrungen und Sprachbeschreibungen. In: Wissenschaftstheorie der Linguistik / Hisg.: Wunderlich D./ - Kronberg, 1976. – S. 125
3. Каган М.С. Мир общения: Проблема межсубъектных отношений. – Москва: Академия, 2008. –С. 124
4. Rustamova D.A. Metaforik evfemizatsiyaning lingvokulturologik va sotsiopragmatik aspekti. Filol. fan. nomz. diss. – Farg'ona, 2018. –B. 22
5. Новиков А. И. Семантика текста к её формализации. - Москва: Наука, 1983. -С.49
6. Madaminova M.S. Matn pragmatik tavsifida sintaktik birliklarning o'rni. Fil. fan. nomz. diss. avtoreferati. - Andijon, 2022. – B. 23
7. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – T.: Fan, 2006. – B. 26-27
8. Qomus.info onlayn ensiklopediya.
9. Abdurahmanova M., Malikova Z. O'zbek tilida sotsiolekt. Fan, ta'lim, madaniyat va innovatsiya. www.mudarrisziyo.uz. – B. 104-107
10. B.Umurqulov. Hozirgi o'zbek tili. Termiz:Til va yozuv madaniyati, 2012. – B. 30